


BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




BUXORO VILOTATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023- YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)



**Tel.: 65-223-80-42
www.buxstat.uz**

Jami faoliyat yuritayotgan

Jami yangi tashkil etilgan



Buxoro sh.	83
950	
G'ijduvon	83
499	
Qorako'l	80
229	
Vobkent	73
294	
Kogon	67
371	
Romitan	59
342	
Olot	45
169	
Kogon sh.	31
184	
Buxoro	30
298	
Peshku	30
205	
Jondor	30
342	
Qorovulbozor	25
123	
Shofirkon	24
241	

Faoliyat yuritayotgan


Yangi tashkil etilgan

Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 22 132,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tuman kesimida




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 10 944,3 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 % ni ko'rsatmoqda.



ming so'mda — o'sish sur'ati, % da

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 20 868,2 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash shahar va tumanlar kesimida

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 282,4 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,3 % ga to'g'ri keldi.



*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*



mlrd. so'mda


FHI, % da




Yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha

(O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)


Oltingugurt



Shag'al



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	1 315,0	664,0	- 651,0
Gips, t.	195 664,0	450 694,0	255 030,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	124 345,6	189 001,0	64 655,4

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat shahar va tumanlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20 868,2 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1% ni (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,6 % (2,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 58,5 % (56,2 %), quyi texnologiyali 38,8 % (41,5 %)ni tashkil etgan.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 48,6 % (2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 111,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,9 % (2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 108,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,9 % (2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 107,4 %) ni tashkil etdi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,8 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,2 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,0 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 762,4 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 6,5 % ga ko'paygan), 3 415,5 ming litr aroq mahsulotlari (20,3 % ga pasaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Mazut, ming t.	62,4	43,4	- 19,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t	3 732,0	6 866,6	3 134,6
Paxta tolasi, t	45 241,0	49 764,0	4 523,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	53 688,8	14 190,2	- 44 021,6
Paxta chigiti, t.	64 888,0	78 675,0	13 787,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 85,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 53,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,7 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 1 070,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,9 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,3 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 3 070,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 228,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,2 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,7 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 4 025,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 574,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 130,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 314,6 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan krekning va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 48,6 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 111,5 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 10 756,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 86,2 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 163,3 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.





2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 70,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 113,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 842,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-sentabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 138,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,5 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1 078,7	1 493,8	415,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	520,1	486,2	- 33,9

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 139,3 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




mlrd. so'mda FHI, % da

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,0 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 37,9 % ga pasayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	14 165,0	14 587,3	422,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln. so'm	496,1	308,3	- 187,8

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 4 389,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,1 %, uning jami sanoatdagi ulushi 19,8 % ga to'g'ri keldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatida 2 299,8 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,7 % ga oshdi va 2 089,9 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 % ga yetdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 52,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 47,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 108,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 113,2 % ga to'g'ri keldi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish


Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 389,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari mos davriga nisbatan 107,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 19,8 % ga to'g'ri keldi.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 792,1 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 14 035,2 ming so'mni, Kogon tumanida – 4 943,1 ming so'mni, Buxoro shahrida– 3 442,6 ming so'mni tashkil etdi.



Viloyatida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi hajmi

2,2 mln. so'm



ming so'mda


o'sish sur'ati, % da



Shahar va tumanlar nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Buxoro viloyatida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmi 2 089,9 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil etdi.

yanvar-sentabr
mlrd. so'mda




Jami iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi

47,6 %



yanvar-sentabr
o'sish sur'ati, % da




Qorovulbozor	226,2
203,6	
Shofirkon	164,7
101,9	
Qorako'l	152,6
248,4	
Romitan	141,3
59,7	
Kogon sh.	124,2
17,9	
Vobkent	112,0
241,2	
Jondor	105,6
41,7	
Buxoro	102,8
50,3	
Olot	97,6
17,1	
G'ijduvon	89,4
475,4	
Buxoro sh.	87,2
439,6	
Peshku	84,1
48,9	
Kogon	81,8
144,2	

● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da

Shahar va tumanlar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Buxoro viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining jami hajmi 2 299,8 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 107,7 % ni tashkil etdi.


yanvar-sentabr
mlrd. so'mda



Jami iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi

52,4 %

yanvar-sentabr
o'sish sur'ati, % da




Qorovulbozor	217,3
72,2	
Kogon	196,0
267,7	
G'ijduvon	182,6
304,3	
Buxoro sh.	142,2
562,4	
Shofirkon	124,1
125,9	
Peshku	121,1
114,9	
Vobkent	115,0
95,1	
Buxoro	96,8
103,8	
Olot	95,4
67,0	
Kogon sh.	90,3
170,5	
Romitan	85,1
58,2	
Jondor	74,4
250,9	
Qorako'l	58,8
106,9	

● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 055,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,9 % ni tashkil etadigan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 37,1 % ni tashkil etgan.


yanvar-sentabr
mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi



yanvar-sentabr
ulushi, % da



Jondor	86,3
605,7	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Shofirkon	83,4
436,8	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Olot	82,7
257,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Vobkent	77,1
487,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Kogon	60,8
777,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Peshku	55,4
257,7	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Buxoro sh.	52,5
1 201,1	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Kogon sh.	50,7
366,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
G'ijduvon	45,5
659,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qorako'l	44,8
395,6	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Buxoro	44,7
292,3	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Romitan	38,2
358,0	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qorovulbozor	8,2
961,2	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Navoiy	

● ● mlrd. so'mda

Ulushi, % da

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 153 ta loyiha bo'yicha 3 162,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 24,5 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022 yil yanvar - sentabr oylarida 99 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 28,6 % ni tashkil etdi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2022-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, birlik	145	153
Korxonalar soni, birlik	134	137
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	2 074,7	3 162,3
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar	19,7	24,5
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	1 262	99